

Kiberxavfsizlik: kiberxavflardan himoyalanish muhim

// 14.08.2026

<https://www.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/kiberxavfsizlik-kiberxavflardan-himoyalanish-muhim>



"O'zkiyosanoat" AJda Ichki ishlar vazirligi Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bilan hamkorlikda Jamiyat xodimlari uchun kiberxavfsizlik mavzusida seminar-trening tashkil etildi.

Tadbirida internet makonida kiberjinoyatlardan himoyalanish, firibgarlik va aldovlarning oldini olish, shaxsiy hamda xizmat ma'lumotlarini muhofaza qilish, shuningdek, "kibergigiyena" qoidalariga amal qilish masalalari muhokama qilindi.



Mutaxassislar tomonidan fishing hujumlari, soxta havolalar, zararli fayllar va turli firibgarlik sxemalari haqida ma'lumot berildi.

Xodimlarga shubhali havolalarni ochmaslik, notanish fayllarni yuklamaslik, parol va akkauntlarni ishonchli himoya qilish, ikki bosqichli autentifikatsiyadan foydalanish, bank kartasi ma'lumotlari va SMS-kodlarni begona shaxslarga bermaslik tavsiya etildi.



Shuningdek, kiberhujum yoki shubhali holatga duch kelinganda to'g'ri harakat qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar berildi.



Ta'kidlanganidek, kiberxavfsizlikni ta'minlashda har bir xodimning raqamli savodxonligi va kibergigiyena qoidalariga amal qilishi muhim ahamiyatga ega.

